

## QORAKO'L TUMANI GEOGRAFIYASI HAQIDA

*Qorako'l Abu Ali ibn Sino nomidagi Jamoat salomatligi texnikumi o'qituvchilari*

**Ashirova Zilola Zaripovna**

**Hasanova Mehriniso Axmatovna**

**Norqulov Marks Azamat o'g'li**

Qorako'l tumani — O'zbekiston Respublikasi Buxoro viloyatidagi tuman. Shimoliy va Shimoli-sharqdan Jondor tumani, janubi-sharqdan Olot tumani, janubiy va g'arbdan Turkmanistonning Lebap viloyati, shimoli-g'arbdan Romitan tumani bilan chegaradosh. Maydoni 9,84 ming km<sup>2</sup>. Aholisi 145,3 ming kishi (2013). Tumanda 8 ta shaharcha (shahar tipidagi pasolka), 42 ta qishloq fuqarolar yig'ini (Sayot, Sho'robo, Qulonchi, Qorako'l, Qozon, Darg'ali, Quyi Yangibozor, Quvvacha, Chandirobod, Jig'achi, Qoraxoji, Qoraun, Chovli, Mallaishayx, Ziyorat, Bandboshi), 50 ta mahalla fuqarolar yig'ini bor. Markazi — Qorako'l shahri[2]. Qorako'lni tarixiyda Paykent, Baykand va Qorako'l deb ham atashgan. Bir necha ming yillik „Zamon bobo“ madaniyati ham Paykentda joylashgan. Paykent Islom dini kirib kelishidan oldin Turk xoqonliklari davrida saltanat markazlaridan bo'lgan. Arab tilida „p“ harfi mavjud bo'lmagani uchun uni Arab manbalarida „Baykand“ deb atashga boshlashgan. An-Narshaxiy (X asr) da yashab ijod qilgan tarixnavis olim Paykent haqida quyidagicha yozadi: Baykant (Paykant) — buni shaharlar jumlasidan deb hisoblaydilar. Baykant aholisi biron kishini Baykantni qishloq deb atashiga rozi bo'lgan emas. Baykandda katta Masjidi-Jome' va oliy imoratlar bo'lgan. 240 hijriy (milodiy 854—855) yilgacha Baykant darvozasi oldida ko'p rabotlar bo'lgan. Baykant aholisini hammasi savdogarlar bo'lgan. Ular Xitoy bilan va dengiz bilan boradigan mamlakatlar bilan savdo qilishgan, juda boy bo'lishgan. Qutayba ibn Muslim Baykand juda mustahkam bo'lgani uchun olishga juda qiynaldi. Arslonxon Muhammad ibn Sulaymon o'z davrida Baykandni qayta qurishga buyirdi, ko'plab oliy imoratlar va Xoqon (Arslonxon) uchun juda hashamatli saroy qurildi. Baykandda juda ko'plab qamishzorlar va suv xaqoblari tutashgani uchun uni „Keng havz“ deganlar, Qorako'l ham deb atashgan.

Zahriddin Muhammad Boburning „Boburnoma“ asarida Qorako'l viloyat deb, Muhammad Solihning „Shayboniynoma“ kitobida „Ko'chasi va qo'rg'oni mustahkam shahar“ deya ta'riflangan. 1821-yilda Amir Nasrullohxon imzosi bo'lgan hukmnomada ham Qorako'l viloyat deya yozilgan. Amir Haydar o'limidan so'ng Buxoroga kelgan E. Berns mang'itlar mamlakatini 9 ta viloyatga bo'lgan. Unda ham Qorako'l viloyat sifatida ta'riflangan.

1914—1916-yillarda amir qo'shbegisi tomonidan ma'muriy birliklar qayta ro'yxatdan o'tkazilgan, unda Qorako'l tuman o'laroq qayd qilingan. Qorako'ldagi ko'plab tarixiy obidalar mustabid Qizil imperiya davrida vayron qilindi. 1926-yil 29-

sentyabrda Buxoro viloyati tarkibidagi tuman sifatida Qorako‘l tumani qayta tashkil qilindi.

Tabiati. Tuman hududi Zarafshon daryosining quyi qismida, viloyatning janubidagi Qorako‘l vohasida joylashgan. Sharqiy qismi 200-300 m dan baland bo‘lmagan qirlar, shimoliy va shimoli-g‘arbiy qismi Qizilqum cho‘li, Qorako‘l va Mohonko‘l vohalari bilan band. Tuproqlari, asosan, bo‘z tuproqlar. Qorako‘l va Mohondaryoning quruq o‘zani o‘tloqi bo‘z, qumoq bo‘z tuproqlar, allyuvial yotqiziqlardan iborat. Botiqlarda sho‘rxoklar, tuzli massivlar (Zamontov) bor, g‘arbiy qismini taqir, qum dyunalari va barxanlar egallagan.

Yovvoyi o‘simliklardan efemer va efemeroidlar, boyalich, kovrak, sho‘ra, shuvoq, isiriq, qandim, yaltirbosh, rang, sak-sovul va yulg‘un o‘sadi. Yovvoyi hayvonlardan yumronqoziq, echkamar, qobon, tulki, qo‘shoyoq, toshbaqa, qum bo‘g‘ma iloni, charxilon va boshqa yashaydi. Qushlardan qarg‘a, to‘rg‘ay, tuvaloq, hakka, musicha, chug‘urchiq, bulbul uchraydi. Yovvoyi hayvonlar muhofaza qilinadigan qo‘riqxonalar bor. Ekin maydonlari Amu-Qorako‘l mashina nasos stansiyasidan sug‘oriladi. Zarafshon daryosining quyi oqimi — Qoraqo‘ddaryo, asosan, yer osti suvlarini oqizuvchi kollektor vazifasini bajaradi. Foydali qazilmalardan gil, qumtosh, shag‘al, tuz, neft va gaz bor.

Iqlimi .Iqlimi keskin kontinental. Yanvarning o‘rtacha temperaturasi  $+1,8^{\circ}$ , eng past temperatura  $-33^{\circ}$ , iyulning o‘rtacha temperaturasi  $28,5^{\circ}$ , eng yuqori temperatura  $45,3^{\circ}$ . Vegetatsiya davri 213 kun. Yillik yog‘in 150-200 mm, ko‘p qismi bahor va qishda yog‘adi.

Aholisi .Aholisi, asosan, o‘zbeklar, shuningdek, turkman, tatar, rus, qozoq o‘zbeklashgan arab va boshqa millat vakillari ham yashaydi. Aholining o‘rtacha zichligi 1 km<sup>2</sup>ga 14,8 kishi. Shahar aholisi 20,9 ming kishi, qishloq aholisi 104,1 ming kishi (2005).

Sanoati .2014-yil 1-aprel holatiga ko‘ra, tumanda sanoatda faoliyat ko‘rsatayotgan kichik tadbirkorlik korxonalarini 51 ta, qishloq va o‘rmon xo‘jaligida faoliyat ko‘rsatayotgan kichik tadbirkorlik korxonalarini 81 ta, savdo va umumiy ovqatlanish sohasida 165 ta, aloqa va transport sohasida faoliyat ko‘rsatayotgan kichik tadbirkorlik korxonalarini 14 ta, qurilish sohasida 30 ta va boshqa sohalarda faoliyat ko‘rsatayotgan kichik tadbirkorlik korxonalarini 83 ta, jami korxonalar soni 424 tani tashkil etdi.

Xo‘jaligi .Tumanda paxta tozalash, g‘isht zavodlari, MTP, qurilish tashkilotlari, avtokorxonalar, neft bazasi, don mahsulotlari aksiyadorlik jamiyati, dehqon bozori ishlab turibdi. Kichik, o‘rta va yirik biznes korxonalarini, mikrofirmalar, „Qorako‘l teks“ qo‘shma korxonasi faoliyat ko‘rsatadi.

Qishloq xo‘jaligining asosiy tarmog‘i paxtachilik, g‘allachilik, chorvachilik, polizchilik. Pillachilik ham rivojlangan. Shirkat, dehqon, fermer xo‘jaliklari mavjud. Sug‘oriladigan maydonlarga paxta, g‘alla, kartoshka, sabzavot va poliz, yem-xashak ekinlari ekiladi. Mevazor, tokzor, tutzorlar bor. Tumandagi jamoa va shaxsiy xo‘jaliklarida qoramol, qo‘y va echki, parranda, shuningdek, tuya boqiladi.

2013-yilda qishloq xo'jaligi mahsulotlari yetishtirish bo'yicha 288 ta fermer xo'jaligi, xususan, 198 ta

Maorifi va madaniyati .Qorako'lda 52 umumiy ta'lim maktabi, bolalar musiqa maktabi, kasb-hunar kollejlari, bitta akademik litsey, tuman markaziy kutubxonasi va uning tarmoqlari, klub muassasalari, madaniyat uylari, madaniyat va istirohat bog'i bor. Tuman markaziy kasalxonasi, poliklinika, tug'ruqxona, qishloq vrachlik, felsher-akusherlik punktlari, ambulatoriyalar, dorixonalar aholiga xizmat ko'rsatadi.

Ushbu tumanda gazeta 1930-yildan boshlab „Bolshevik sur'ati“ nomi ostida nashr qilina boshlagan. Muharrir Xo'janazar Nafasov bo'lgan. Keyinchalik „Kommunistik sur'at“, „Olg'a“ nomlari ostida chop etilgan. O'zbekiston mustaqillikka erishganidan so'ng gazeta „Qorako'l sadosi“ nomi bilan chiqa boshladi. 2007-yildan tumanda Buxoro viloyat televideniyasining „Istiqlol“ telekanali filiali o'laroq „Olot-Qorako'l“ televideniyasi ish boshlagan.

Transporti.Qorako'l tumani orqali xalqaro temir yo'l va avtomobil yo'llari o'tgan. Shu bilan birga bitta mahalliy aeroport bor. Tuman markazi bilan qishloqlar orasida hamda Buxoro va Qorako'l shaharlari o'rtasida avtobus va marshrutli taksilar qatnaydi. Tuman yo'l xo'jaligi korxonasi tegishli 374 km avtomobil yo'li mavjud. Shundan 215 km mahalliy ahamiyatdagi, 128 km respublika ahamiyatidagi, 31 km xalqaro ahamiyatdagi avtomobil yo'llar hisoblanadi. 425 km uzunlikdagi ichki xo'jalik yo'llari ro'yxatga olingan.

Qorako'l vohasi — Zarafshon daryosining quyi oqimida (Buxoro viloyati) joylashgan voha. Shimolida Kemirakqum qumliklari, g'arb va janubi-g'arbda Sandiqli cho'li, janubida Ishaqchi qumligi, sharqda Qarshi cho'li bilan chegaradosh. Shimoli-sharqda Qorako'l vohasi Qorako'l platosiga tutash. Voha shimoli-sharqdan janubi-g'arbgacha 40-45 km ga cho'zilgan, eni 30- 35 km. Yer yuzasi janubi-g'arbgacha nishab. O'rtacha balandligi shimoli-sharqiy qismida 205 m, jan.da 187 m, Asosan, zarafshon daryosining allyuvial-delta yotqiziqalaridan tashkil topgan. Shim,-g'arbiy, g'arbiy va janubiy qismlarida allyuvial-ko'l yotqiziqalari ham uchraydi. Voha atrofida harakatdagi va o'simliklar bilan mustahkamlangan barxanlar, do'ng qumlar tarqalgan. Iqlimi keskin kontinental. Urtacha yillik temperatura 14°. Yanvarning o'rtacha temperaturasi —0,2°, eng past temperatura —25°. Iyulda o'rtacha temperatura 27,2°, eng yuqori temperatura 48°. Yillik yog'in 120 mm, asosiy qismi sentabr—mart oylarida yog'adi. Qor qoplami juda yupqa (o'rtacha 1 sm, ba'zi yillari 7 sm ga yetadi).

Zarafshon daryosi (Qorako'l platosida) tor yo'lakdan chiqqandan so'ng bir qancha radial tarmoqlarga bo'linib delta hosil qiladi. Uning yuzasi, asosan, ekinzorlar bilan band. Voha hududida sho'r ko'l, sho'rxoklar uchraydi. Qorako'l vohasida sur-qo'ng'ir, qumloq, taqir, sho'rxok, utloq-taqir, sug'oriladigan o'tloq, sug'orilmaydigan o'tloq-allyuvial, o'tloq va botqoq tuproqlar tarqalgan. Tuproqlari turli darajada sho'rlangan, ularning melioratsiya holatini doimo yaxshilab turishni talab etadi. O'simliklardan

oqsaksovul, juzg'un, quyonsuyak, cherkez, iloq, shu-voq, sho'ra, boyalich, turang'il, tol, chingil, yantoq, yulg'un va boshqa o'sadi.

Qorako'l vohasining katta qismi ekinzorlarga aylantirilgan. Hayvonot dunyosi cho'lga xos: kalamush, qo'shoyoq, ilon, kalta-kesak, tulki, bo'ri, to'qay mushugi, chiyabo'ri va boshqa yashaydi. Vohaning asosiy suv manbalari Zarafshon va Amudaryo. Vohada AmuBuxoro mashina kanalidan uz. 40 km li Amu-Qorako'l kanali chiqarilgan.

Hayvonlar, hayvonot dunyosi — organik olam sistemasidagi yirik bo'limlardan biri. Hayvonlarning bundan 1 — 1,5 milliard yil ilgari okean suvida mikroskopik, xlorofillsiz amyobasimon xivchinlilar shaklida paydo bo'lganligi taxmin qilinadi. Hayvonlarning eng qadimgi qazilma qoldiqlari yoshi 0,8 milliard yildan oshmaydi. Ko'p hujayrali hayvonlar — bo'shliqichlilar, chuvalchanglar, tuban bo'g'im-oyoqlilarning dastlabki qoldiqlari so'nggi kembriy qatlamlaridan boshlab (mil.dan 690—570 million yil avval) uchraydi. Kembriy davri boshlarida (mil.dan 570—490 million yil avval) tashqi mineral skeletli (chig'anoqli yoki xitinli) dengiz umurtqasizlarining ko'pchilik guruxlari (trilobitalar, jabraoyoqlilar, mollyuskalar, arxeotsiatlar) rivojlangan. Kembriyning oxirida tashqi skeletga ega bo'lgan umurtqasizlar (to'garak og'izlilartsht qadimgi ajdodlari) kelib chiqqan. Silurda (mil.dan 445—400 million yil avval) hayvonlar o'simliklar bilan bir vaqtda quruqlik yuzasini egallay boshlaydi. Silurning keyingi davrida, dastlabki chayonlar, devon oxiridan boshlab (mil.dan 400—345 million yil avval) dastlabki quruqlikda yashovchi umurtqalilar — suvda hamda quruqlikda yashovchilar rivojlangan. Karbon davrida (mil.dan 345—280 million yil avval) quruqlikda umurtqasizlardan hasharotlar, umurtqalilardan tuban tuzilishga ega bo'lgan sudralib yuruvchilar va suvda hamda quruqlikda yashovchilar, Mezozoyning trias, yura va bo'r davrlarida (mil.dan 230—66 million yil avval) sudralib yuruvchilar hukmronlik qilgan. Trias o'rtalarida (mil.dan 230—195 million yil avval) dinozavrlar, bu davr oxirida sut emizuvchilar kelib chiqqan. Qushlar yura davrining oxiridan (mil.dan 195—136 million yil avval) ma'lum. Bo'r davrining oxiriga kelib (mil.dan 136—66 million yil avval) ko'pchilik dengiz umurtqasizlari, dengiz va quruqlikda yashovchi sudralib yuruvchilar, jumladan. dinozavrlar qirilib ketadi; ular o'rnini qushlar va sut emizuvchilar egallaydi.

Hayvonlar — geterotrof organizmlar, ya'ni ular tayyor organik moddalar bilan oziqlanadi. Hayvonlarda metabolizm faol kechishi tufayli ularning o'sishi cheklangan. Evolyutsiya jarayonida har xil organlar funksional sistemasi: muskul, ayirish, nafas olish, qon aylanish, jinsiy va nerv sistemalarining shakllanishi hayvonlar uchun xos bo'lgan eng muhim xususiyatlardan hisoblanadi. Hayvonlar hujayrasi qattiq selluloza qobiqning bo'lishi bilan o'simliklardan farq qiladi. Biroq hayvonlar bilan o'simliklar o'rtasidagi farq nisbiy. Masalan, bir hujayrali hayvonlarning muskul, nerv va boshqa sistemalari bo'lmaydi; ko'p hujayrali hayvonlar orasida ham o'troq yashaydiganlari ko'p (masalan, g'ovaktanlilar, bo'shliqichlilar, mshankalar, assidiyalar, ko'p tukli

chualchanglar). Ayrim organizmlarni oziqlanish usuli (fotosintez) va harakatlanishiga binoan bir vaqtning o'zida hayvonlarga ham, o'simliklarga ham kiritish mumkin (masalan, evglenasimonlar, volvokslar va boshqalar). Hayvonlar bilan o'simliklar o'rtasida keskin chegaraning bo'lmashligi ularning kelib chiqishidagi umumiylik bilan bog'liq. Hayvonlar va o'simliklarning hujayralardan tuzilganligi, ular tanasida boradigan moddalar almashinuvi jarayonining umumiyli, irsiyat va o'zgaruvchanlik qonuniyatlarining o'xshashligi va boshqa ana shundan dalolat beradi.

Hayvonlar hujayraviy tuzilishga binoan bir hujayra va ko'p hujayralilarga ajratiladi. Bir hujayralilarda bitta hujayraning o'zi tirik organizm uchun xos bo'lgan deyarli barcha xususiyatlarga ega. Tuban ko'p hujayralilar — plastinkasimonlar tanasi bir necha funksiyani (harakatlanish, qoplash, oziqlanish) bajaradigan, kam ixtisoslashgan hujayralardan iborat. G'ovaktanlilar, bo'shliqichlilar, taroqlilar tanasi 2 qavat (ektoderma va entoderma) bo'lib joylashgan nisbatan ixtisoslashgan hujayralardan iborat, lekin to'qima va haqiqiy organlar shakllanmagan; birmuncha murakkab tuzilgan. Hayvonlar to'qima va organlari ontogenezda 3 ta murtak varaqlari (ektoderma, endoderma va mezoderma) hisobidan hosil bo'ladi. Mas, ektodermadan nerv sistemasi, sezgi organlari, teri va uning hosilalari; endodermadan ichak, nafas organlari, sekretiya bezlari; mezodermadan suyak, muskul, qon aylanish, ayirish sistemasi organlari shakllanadi.

Uch qavatli hayvonlar birlamchi og'izlilar (halqali chualchanglar, mollyuskalar, bo'g'imoyokdilar) va ikkilamchi og'izlilar (ignatanalilar, xordalilar)ga ajratiladi. An'anaga ko'ra barcha hayvonlar umurtqasizlar (ko'pchilik hayvonlar) va umurtqalilar (xordalilar)ga bo'linadi. Tuzilishi va o'zaro filogenetik bog'lanishiga binoan hayvonot dunyosi kenja dunyo, tip, sinf va boshqa taksonlarga ajratiladi. Odatda, hayvonot dunyosi 16—25 (ba'zan 10—33 ta) tipga ajratiladi. Ayniqsa tuban tuzilgan umurtqasizlarni sistemaga solishda ko'p chalkashliklar mavjud. Masalan, 20-asrning 60-yillarigacha bir hujayralilar faqat bitta tip sifatida o'rganilgan bo'lsa, hozirgi davrda bir necha (5—7 ta) tipga ajratiladi. Barcha ko'p hujayralilar tiplari (qarang Tip) bitta ko'p hujayralilar kenja dunyosiga, bir hujayralilar esa bir hujayralilar kenja dunyosiga kiritiladi. Hayvonlarning 1,5 million (boshqa ma'lumotlarga ko'ra 3—4,5 million) turi ma'lum. Yer yuzida hayvonlar yaxshi o'rganilmagan. Har yili to'garak chualchanglar, hasharotlardan yuzlab yangi turlar ko'rsatib berilmoqda. Aniqlangan hayvonlarning 2/3qismini hasharotlar tashkil etadi.

Tabiatda va odam hayotida hayvonlar katta ahamiyatga ega. Hayvonlar — barcha ekosistemalarda oziqlanish zanjirining asosiy tarkibiy qismi. Hayvonlar o'simliklar bilan oziqlanib, o'zlashtirgan moddalarining yana tuproqqa qaytarilishiga, binobarin o'simliklarning o'sishiga imkon beradi. O'simlik va hayvonlar qoldig'i bilan oziqlanadigan hayvonlar Yer yuzini organik qoldiqlardan tozalab, tabiiy sanitarlik vazifasini bajaradi. Yirtqich hayvonlar tabiatda zararkunanda hayvonlarning sonini cheklab turishga yordam beradi. Hayvonlar odam hayotida ham katta ahamiyatga ega.

Ulardan bir qancha turlari ovlanadi; uy hayvonlari go'sht, sut, jun, teri va boshqa qishloq xo'jaligi mahsulotlari olish maqsadida va transport vositasi sifatida boqiladi. Hayvonlar orasida qishloq xo'jaligi, odam va hayvonlarga ziyon keltiradigan parazit turlari ham ko'p. Odam faoliyatining tabiatga ta'siri tobora kuchayib borishi bir xil turlar sonining keskin qisqarib ketishiga olib keldi. Ayrim ma'lumotlarga ko'ra hozirgi davrda har kuni hayvonlarning bitta turi yo'qolib bormoqda. Hayvonlarni muhofaza qilish va ulardan foydalanish maqsadida deyarli barcha mamlakatlarda qonunlar qabul qilingan; maxsus qo'riqxonalar tashkil etilgan. O'zbekiston Respublikasi Qizil kitobiga 184 hayvon turi kiritilgan. Amu-Buxoro mashina kanali — Buxoro viloyatidagi sug'orish kanali. Amudaryoning o'ng qirg'og'idan, Chorjo'y sh. (Turkmaniston)dan 12 km yuqorida boshlanadi. Qizilqumdan o'tib Buxoro vohasiga suv beradi. 1-navbati 1965 yilda, 2-navbati 1976 yilda qurilgan. Umumiy uz. 400 km. Suvni maksimal ko'tarish balandligi 111m, maksimal suv o'tkazish imkoniyati 270 m<sup>3</sup>/s Amu-Buxoro mashina kanali k.ning 1-navbati ishga tushirilgach, Buxoro viloyatida boshqa manbalardan sug'orib kelingan 136,5 ming ga yerni Amudaryo suvi bilan sug'orish mumkin bo'ldi, Amudaryo havzasidagi 377 ming ga yerning suv bilan ta'minlanishini yaxshilash, 23,8 ming ga yangi yerlarni sug'orish imkoni tugildi. Magistral kanalda 65 gidrotexnika inshooti, 11 nasos stansiyasi (jumladan suvni 54 m balandlikka ko'tarib beradigan, har birining quvvati 12,5 ming kVt bo'lgan 10 nasos agregatli Hamza-2 nasos stansiyasi) bor. Amu-Buxoro mashina kanali k.ning nasos stansiyalari, ularning umumiy joylanishi, ayrim nasos agregatlarning quvvati, shuningdek nasoslarning avtomatika va telemexanika vositalari bilan jihozlanishi jihatidan mamlakat irrigatsiya tajribasida noyob hisoblanadi. Birinchi mar-446ta Buxoro viloyatida nasos stansiyasining old kamerasida belgilangan suv sathini doimo bir xilda saqlab turadigan avtomatik tamba (zatvor) qo'llanildi. 152-kmda uch yo'nalishda suv taqsimlagich qurildi: chapda — Amu-Buxoro mashina kanali k.ning 1-navbati uchun (suv sarfi 60,3 m<sup>3</sup>/s), o'ngda — Amu-Buxoro mashina kanali k.ning 2-navbati uchun (suv sarfi 95,8 m<sup>3</sup>/s) va o'rtada rostlagich -To'dako'l sho'rini yuvish hamda kelajakda uni to'ldirish uchun suv beradi. Amu-Buxoro mashina kanali k.ning 2-navbati tugaydigan 191-kmda Qiziltepa nasos stansiyasi qurildi. U Amu-Buxoro mashina kanali k.ning 2-navbatidan Zarafshon daryosiga suv uzatadigan ikkinchi pogona hisoblanadi. Qiziltepa nasos stansiyasining yuqori befida suv sathini ta'minlash uchun To'dako'l botig'iga suv tashlaydigan inshoot qurilgan. Amu-Buxoro mashina kanali k. 2-navbatining ishga tushirilishi 15,5 ming ga yangi yerlarni o'zlashtirish, Amudaryo suvi bilan Buxoro, Samarqand, Navoiy viloyatlaridagi 77 ming ga sug'oriladigan yerlarning suv ta'mino-tini yaxshilash imkonini yaratdi. Sharif Hamdamov.

**ADABIYOTLAR:**

1. Baratov P. O`zbekiston tabiiy geografiyasi. Toshkent. O`qituvchi nashriyoti
2. Shomurodov. O`zbekistonda turizmni rivojlantirish. O`zbekiston geografiya jamiyati axboroti. Toshkent -2005. Sh.Nurmatov. Qorako`l taronasi. Toshkent – 1996.
9. Tuychieva, I., Aripov, S., Madaminova, D., & Mustaev, R. (2021). THE PEDAGOGICAL SYSTEM OF PREPARING BOYS FOR FAMILY RELATIONSHIPS IN GENERAL SECONDARY SCHOOLS. 湖南大学学报 (自然科学版), 48(8).
8. Aripov, S. O. (2020). SOCIO-PSYCHOLOGICAL ROLE AND SIGNIFICANCE OF THE FAMILY IN PREPARING CHILDREN. In Психологическое здоровье населения как важный фактор обеспечения процветания общества (pp. 311-313).
9. Olimovich, A. S. (2023). The Role of Parents in the Formation of Young People and the Imagination of the Family. Journal of Intellectual Property and Human Rights, 2(4), 4-8.
10. Арипов, Ш. О. (2022). Ёшларни оилага тайёрлашда оилада эр ва хотиннинг айрим мажбурият ва бурчларини қонуний жиҳатдан тушунтириш. Academic research in educational sciences, 3(1), 68-75.
11. Olimovich, A. S. (2023). DINIY VA DUNYOVIY BILIMLAR ASOSIDA AJRIM SABABLARINI YOSHLARNI OILAGA TAYORLASHDA YETKAZIB BERISH. IJODKOR O'QITUVCHI, 3(26), 335-338.
12. Tuychieva, I., Aripov, S., Madaminova, D., & Mustaev, R. (2023, June). Language and computer in the development of communicative competence of school children. In AIP Conference Proceedings (Vol. 2789, No. 1). AIP Publishing.